

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARDA
REFLEKSIV POZITSIYANI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

G‘oyimov Umar Eshmurodovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi

E-mail: umarjon199112@gmail.com.

ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida refleksiv pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlar haqida ma’lumot berilgan. Bundan tashqari pedagogik shart-sharoit deganda nima tushunilishi bo‘yicha olimlarning qarashlari berilgan. Maqolada tavsifiy, sintaktik metoddan foydalilanilgan. Maqola oxirida xulosa berilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy-pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, psixologik-pedagogik shart-sharoit, model, mexanizm, element.

Pedagogik jarayonga shaxsiy yo‘nalganlik, har bir insonda tabiatan in’om qilingan layoqat, qobiliyatlarni izlash va rivojlantirish, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik tizimlarni ishlab chiqish bugungi kunda ta’limga qo‘yiladigan talablar, bo‘lajak o‘qituvchilarda metodologik madaniyatni rivojlantirish maqsadida ta’limga an’anaviy yondashuvga o‘zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Pedagogika sohasidagi Davlat ta’lim standartlarini yangilashning asosiy sababi standartlashtirish obyektini o‘zgartirishda aks etadi: o‘qitish mazmuniga qo‘yiladigan minimum talablardan xuddi shunday darajadagi natijalarga erishish zarur. Bo‘lajak o‘qituvchilarda metodologik madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadqiqot doirasida mazkur jarayonga ta’sir ko‘rsatadigan, shu bilan birga uning samaradorligini ta’minlaydigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish lozim, degan xulosaga kelindi. Ancha yillar ilgari L.S. Vigotskiy “ular hali mustaqil vazifani bajarishga tayyor bo‘lmasada, tegishli psixik xususiyatlarni rivojlantirish uchun avvaldan sharoit yaratishi zarur” ligini qayd etib o‘tgan.

Demak, pedagogik shart-sharoit ta’lim maqsadiga erishish uchun professor-o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro birgalikdagi faoliyatiga asoslangan maxsus tashkil etilgan muhitni aks ettirishi lozim. “Pedagogik shart-sharoit” tushunchasi bilan birga tadqiqotchilar “tashkiliy-pedagogik sharoit”, “didaktik shart-sharoit”, “psixologik-pedagogik shart-sharoit” atamalarini ham qo‘llashadi. Shuningdek, ko‘pchilik

tadqiqotlarda “shart-sharoit” tushunchasi bilan birga “imkoniyat” so‘zini qo‘llash ham ko‘p ko‘zga tashlanadi. Masalan, S.Zoxidova o‘z tadqiqotida “boslang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirishning didaktik imkoniyatlari” tushunchasi auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini loyihalashtirish, interfaol ta’limga ustuvorlik berish asosida kasbiy-didaktik moslashuvni jadallashtirish, innovatsion kompetentlikni qaror toptirish mazmuni, samarali shakl, metod va vositalari majmuini o‘zida ifoda etishi haqidagi xulosaga kelgan.

Pedagogik shart-sharoit deganda tizimning shaxsiy va jarayon bilan bog‘liq jihatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi ta’limiy va moddiy-makonga yo‘naltirilgan muhit imkoniyatlari majmuyi hamda uni samarali tashkil etish va rivojlantirishni ta’minlovchi” pedagogik tizim komponenti tushuniladi.

N.V.Ippolitov pedagogik shart-sharoitlarning quyidagi tasnifini ajratib ko‘rsatgan:

- ta’limiy vazifalarni hal etish uchun o‘quv jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar;
- pedagogik jarayon subyektlari shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik-pedagogik shart-sharoitlar;
- o‘quv jarayonining texnologiya, shakl, metod va vositalarini aniqlab beruvchi didaktik shart-sharoitlar.

Muallifning fikriga qo‘shilgan holda tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik shart-sharoitlarni pedagogik shart-sharoitning komponentlari sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

N.M. Boritko pedagogik shart-sharoit deganda, pedagog tomonidan ongli ravishda tizimlashtirilgan, ma’lum bir natijaga erishishni ko‘zda tutuvchi pedagogik jarayonni amalga oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi jihatni tushunadi.

Xuddi shunday M.Siprob mazkur yaxlit model “tarbiyaviy vositalar shkalasini soddalashtirish, unda shaxsning haqiqattan shakllanishida alohida ta’sir ko‘rsatadigan eng asosiylarining minimal miqdorini aniqlab berishi” lozimligini ta’kidlab o‘tgan.

T.V.Minakova pedagogik shart-sharoitlarni chet tilini kasbiy yo‘naltirib o‘qitishda bo‘lajak mutaxassisning bilish mustaqilligini rivojlantiruvchi mavjud holatlar sifatida talqin qilgan va quyidagilarni ajratib ko‘rsatgan:

1) kognitiv:

- o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini jadallashtirish;
- bo‘lajak mutaxassis faoliyati nuqtai nazaridan o‘qitish mazmuni variativligini ta’minalash;

2) aksilogik:

- chet tilni o‘zlashtirishda yutuqlarga erishish motivatsiyasini rag‘batlantirish

• kasbiy yo‘naltirilgan chet tilni o‘rganishga talabalarda qadriyatli ustanovkalarni shakllantirish;

3) amaliy:

• izlanishga doir, lingvistik, informasion tahliliy, kreativ, refleksiv kabi intellektual bilish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida o‘quv jarayonida mustaqil bilishga doir vaziyatlarni modellashtirish;

• o‘quv jarayonini individuallashtirish va o‘quv hamkorligini amalga oshirish vositasida subyektlararo munosabatlarni faollashtirish.

Maqbul pedagogik vositalar va shart-sharoitlar tizimini izlab topishga kuchli rag‘bat sifatida mazmunli modelning alohida elementlarini empirik jihatdan izlash, sinovdan o‘tkazish alohida o‘rin egallaydi. Qoidaga muvofiq, bunday izlanish nazariy tahlil bosqichida boshlanadi, qanchalik tajribani anglash, kasbiy refleksiya yorqin namoyon bo‘lsa, kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga kuchli rag‘bat bo‘ladi.

• N.M.Boritkoning qayd etishicha, samarali vosita va shartlarni tanlash pedagogda turli ko‘rinishdagi mualliflik dasturlarini yaratishda aks etadigan nisbatan mukammal pedagogik tizimlarni ishlab chiqishni rag‘batlaydi.

• Tadqiqotda pedagogik shart-sharoit – bu ta’lim va tarbiya mazmuni, tashkiliy shakl, metod va vositalarni o‘z ichiga olgan, o‘z navbatida talabaning ichki dunyosi bilan o‘zaro munosabatlarga yo‘naltirilganligini anglatadigan pedagogik jarayonning muhim komponentidir, degan qoidaga tayanildi.

• Ushbu yondashuv pedagogika fanida mavjud bo‘lgan “shart-sharoitlar” tushunchasining boshqa talqinlari bilan uyg‘un kelishi ham muhimdir.

• Shunday qilib, tadqiqot doirasida pedagogik shart-sharoitlar muayyan pedagogik maqsadga erishishni ta’minlaydigan pedagogik tizimning amaldagi elementlari sifatida talqin qilindi.

• Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlar majmuini aniqlashtirishda mazkur jarayonga ta’sir ko‘rsatadigan omillarning ta’siri; bo‘lajak o‘qituvchilarining refleksiv pozitsiyasini shakllantirish xususiyatlari va imkoniyatlari; taklif etilgan modelining tizimli-funksional xususiyatlari; refleksiv, tizimli, aksiologik va shaxsiy-faoliyatli yondashuvlarni amalga oshirish zaruriyati hisobga olindi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili hamda oliy ta’lim tizimidagi mavjud tajribalar bo‘lajak o‘qituvchilarining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish, agar ushbu jarayon quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olgan holda tashkil etilsa, samarali bo‘ladi, degan farazni olg‘a surildi: mashg‘ulotlarni muammoli-variativ tarzda tashkil etish orqali bo‘lajak o‘qituvchisining refleksiv hayotiy tajribasini tarkib toptirish; bo‘lajak o‘qituvchini refleksiv topshiriqlarni hal qilish jarayonida pedagogik

faoliyatga jalb qilish; refleksiv algoritmni ishlab chiqishda interfaol metodlardan foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.Vulfov B.Z. Ivanov V.D. Osnov' pedagogiki: uchebnoye posobiye. –M.: URAO, 1999. –S.
- 2.Abulxanova K.A. Problema opredeleniya subyekta v psixologii. Subyekt deystviya, vzaimodeystviya, poznaniya (Psixologicheskiye, filosofskiye, sotsiokulturn'yе aspect'): monografiya.
- 3.Shedrovitskiy G.P. Kommunikatsiya, deyatelnostь, refleksiya // Issledovaniye rechem'slitelnoy deyatelnosti. –Alma-Ata,2004.
5. Pedagogika: pedagogicheskiye teorii, system', texnologii / Pod red. S.A.Smirnova. –M.: Akademiya, 1998.